

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 28-yanvar №1 (1562)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

FIDOYILIK TIMSOLI

Ustozi qaytib kelgach, u xohishi bilan zavod direktorligini unga topshirib, o'zi Marten sexiga boshliq bo'lishni afzal ko'rdi.

2 ➔

FAVQULODDA HOLAT

Korrupsiya islohotlarga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilindi.

3 ➔

INSON UCHUN IBRAT

Insonlargagina emas, balki hayvonot va nabotot olamiga ham ziyon yetkazmaslik hayot qonuniyatining ajralmas qismidir.

4 ➔

"O'ZMETKOMBINAT"DA PO'LAT ZOLDIRLAR ISHLAB CHIQARISH BO'YICHA MUTLAQ REKORD

JAMOAVIY MEHNAT VA MAS'ULIYAT SAMARASI

"O'zmetkombinat" Ajda o'tgan yil yakunlariga ko'ra Zoldir prokatlash bo'linmasida qo'lga kiritilgan natijalar kombinat tarixida yangi sahifa ochdi. Yil davomida erishilgan yutuqlar nafaqat rejani bajarish, balki ishlab chiqarish samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini berdi.

O'tgan yilda Zoldir prokatlash bo'linmasi kombinatda yillik rejani muvaffaqiyatli bajargan yetakchi tarkibiy bo'linmalardan biri bo'ldi. Bo'linmada jami 259 437 tonna prokat mahsulotlari ishlab chiqarilib, yillik reja 103,8 foizga bajarildi. Ushbu hajmning 257 710 tonnasi po'lat zoldirlar hissasiga to'g'ri kelib, mazkur yo'nalish bo'yicha reja 103,1 foizga bajarildi.

Bu ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan salmoqli o'sishni tashkil etib, ishlab chiqarish hajmi 9 ming tonnadan ortiqqa oshdi, o'sish sur'ati esa 103,8 foizga yetdi. Eng muhimi, bo'linmada bir yil davomida bunchalik katta hajmda mahsulot ishlab chiqarilishi avval kuzatilmagan edi. Shu tariqa, "O'zmetkombinat" tarixida po'lat zoldir ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq rekord o'rnatildi.

Bunday yuqori ko'rsatkichlar tasodifiy emas. Zoldir prokatlash bo'linmasida qo'lga kiritilgan rekord natijalar ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va eng avvalo, jamoaning mehnatga bo'lgan mas'uliyatli munosabati samarasidir. Ular sifat va hajmni bir vaqtning o'zida ta'minlashni asosiy maqsad qilib olishgan.

O'tgan yilning so'nggi oyida ham zoldir prokatlovchilar jamoasi yuqori mehnat unumdorligini namoyon etdi. Dekabr oyida 23 991 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, oylik reja 108,6 foizga bajarildi.

– Rekord natijaga erishish oson bo'lmadi. Biroq jamoadagi o'zaro hamjihatlik, smenalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik va har bir ishchining o'z ishiga mas'uliyat



bilan yondashuvi orqali bunga erishdik. Bu butun jamoamiz yutug'idir, – deyishdi biz bilan suhbatda zoldir prokatlovchilar.

Rekord ko'rsatkichlar ortida, avvalo, oddiy ishchilarning kundalik mashaqqatli mehnati mujassam. Ular ish jarayonida sifat talablariga qat'iy amal qilib, mahsulot ishlab chiqarishda mas'uliyatni chuqur his etib mehnat qilmoqdalar.

Qo'lga kiritilgan rekord ko'rsatkichlar "O'zmetkombinat" Ajning ichki bozordagi nufuzini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash va mamlakat metallurgiya sanoatidagi yetakchi o'rnini yanada kuchaytiradi. Bu yutuqlar yangi marralar sari intilish, ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish va zamonaviy talablarga javob beradigan mahsulot turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Diyor ZULFIQOROV.


MEHNAT JAMOALARIDA

TARAQQIYOT SARI ISHONCHLI QADAM

Bekobod rangli metallar ishlab chiqarish korxonasi jamoasi 2025-yilni munosib natijalar bilan yakunlab, 2026-yilga katta reja va aniq maqsadlar bilan kirib keldi. Korxonada ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, mahsulot sifatini yanada yaxshilash va eksport salohiyatini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Korxonada zamonaviy texnologiyalar asosida L63, L68, L70, CuZn30, M1 va M1E turdagi markalar bo'yicha yuqori sifatli mis va mis qotishmalaridan folga, lenta va tasmalar ishlab chiqarilmoqda. Mazkur mahsulotlar davlat standartlari hamda xalqaro sifat talablariga to'liq javob beradi.

(Davomi 3-sahifada).



**ALISHER NAVOIY - XALQIMIZ
FAXRI, ULUG' AJDODIMIZ**

IJODI BUYUK, QALBI ULUG' INSON

Buyuk shoir, mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi.

Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Alisher Navoiyning eng mashhur asarlariga beshta dostonidan iborat "Xamsa" ("Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"), "Xazoyin ul-maoniy" (g'azallar to'plami), "Lison ut-tayr" dostoni, "Mahbub ul-qulub" badiiy-falsafiy asari va "Muhokamat ul-lug'atayn" ilmiy asari kiradi. Umuman olganda Navoiy 20 jildlik mukammal asarlar to'plamiga kiruvchi juda boy adabiy meros qoldirgan.

Shoirning ijodi nafaqat adabiyotda, balki xalqning ma'naviy hayotida ham chuqur iz qoldirgan. U o'z asarlarida insonparvarlik, adolat va mehr-muhabbatni targ'ib qildi. Alisher Navoiy tilimiz va madaniyatimizni boyitgan, uning merosi bugungi kunda ham ilmiy va adabiy muhokamalarda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Navoiy faqat shoir emas, balki davlat arbobi, davlatchilik ishlari bilan shug'ullangan, bilimli va ma'rifatparvar shaxs sifatida ham tanilgan.

Alisher Navoiy o'z davrida katta moddiy imkoniyatlarga ega bo'lgan. Uning moliyaviy ahvoli Hirot shahrining yillik solig'ini to'lashga va shoh Husayn Boyqaroga qarz berishga yetarli bo'lgan. Navoiy o'z mablag'lari hisobiga suv inshootlari barpo etgan, madrasalar qurdirgan, yetim-yesirlar, beva-bechoralar, talabalar va ilm ahliga moddiy yordam ko'rsatgan.

Buyuk mutafakkirning hayoti va ijodi bizga ilhom bag'ishlaydi, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga undaydi. Shu bois, Alisher Navoiyning merosi har bir o'zbek uchun faxr va e'tiqod manbai hisoblanadi.

Diyora AHMEDOVA.

KORRUPSIYAGA QARSHI FAVQULODDA HOLAT

TARAQQIYOT TAHDIDIGA QARSHI KURASH – BARCHAMIZNING BURCHIMIZ

Bugun mamlakatimiz hayotida korrupsiyaga qarshi kurash masalasi eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan qat'iy siyosat, qabul qilinayotgan qaror va tashabbuslar barcha sohalarida halollik, shaffoflik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida joriy yilda mamlakatimizda "Korrupsiyaga qarshi favqulodda holat" e'lon qilinganini alohida ta'kidladi. Davlat rahbari bu borada quyidagi so'zlarni qat'iyat bilan bayon etdi:

"Takror va takror aytaman. Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid.

Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilamiz".

Bu so'zlar har bir rahbar va har bir xodim uchun qat'iy ogohlantirish, shaxsiy mas'uliyatni anglashga chaqiriqdir.

Korrupsiya nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki jamiyat ma'naviy poydevoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. U mehnatga bo'lgan ishonchni susaytiradi, halol ishlaydigan fidoyi kadrlarning tashabbusini cheklaydi va taraqqiyot sur'atlarini sekinlashtiradi.

Metallurgiya sohasi mamlakat sanoatining tayanch tarmoqlaridan biri. Ushbu tarmoqda ishlab chiqarish intizomi, qonunga rioya qilish, tender va xarid jarayonlarida ochiqlikni ta'minlash har qachongidan ham muhim. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa nafaqat korxona manfaatlariga, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazadi.

Korrupsiyaning yashirin, ammo eng xavfli ko'rinishlaridan biri – manfaatlar to'qnashuvidir. Bu holat xodim yoki rahbarning xizmat vazifalarini bajarish jarayonida shaxsiy, oilaviy yoki yaqin qarindoshlik manfaatlari bilan korxona manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelganda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, kadrlar tayinlovi, shartnomalar tuzish, xaridlar va moliyaviy qarorlar qabul qilishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish korrupsiyaga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Metallurgiya kombinatida har bir xodim manfaatlar to'qnashuvi holatlarini barvaqt aniqlash va ularni oshkora ravishda ma'lum qilish madaniyatini shakllantirishi zarur. Xizmat vazifasini bajarishda xolislik va adolat tamoyillariga amal qilish, shaxsiy manfaatlarni ish manfaatlaridan ustun qo'ymaslik – bu nafaqat qonun talabi, balki har bir vatanparvar xodimning ma'naviy burchidir. Manfaatlar to'qnashuviga nisbatan murosasiz munosabat korrupsiyaning oldini olishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Kombinatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish faqat nazorat yoki jazo bilan cheklanib qolmasligi lozim. Eng avvalo, halol mehnat madaniyatini shakllantirish, qonun talablariga qat'iy amal qilish, mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanmaslik har bir xodimning ichki e'tiqodiga aylanishi kerak. Har bir mutaxassis, har bir ishchi o'z mehnati bilan korxonaning obro'-e'tibori va davlat taraqqiyotiga hissa qo'shayotganini chuqur anglashi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurash bu bir kunlik aksiya emas, balki uzluksiz jarayon. Bu yo'lida barchamiz birdam bo'lib, murosasiz pozitsiyani namoyon etsak, ishonchli, shaffof va samarali ishlab chiqarish muhitini yarata olamiz. Zero, halol mehnat va pok niyat bilangina yuksak natijalarga erishish mumkin.

Akmal SHARIPOV,
"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi
o'rinbosari - umumiy masalalar bo'yicha
direktor.

Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi!



YUQUMLI SARIQ KASALLIGIDAN SAQLANING!

Dunyo bo'yicha har yili virusli hepatit "A" kasalligining taxminan 1,5 million holati qayd etiladi. Bu kasallik, ayniqsa, bolalar o'rtasida ko'p uchraydi. O'zbekistonda, jumladan Bekobod shahrida ham ushbu kasallik bo'yicha epidemiologik vaziyat barqaror emas.

2023-yilda Bekobod shahrida 2-14 yoshli bolalar orasida kasallanish 2022-yilga nisbatan 45,5 foizga, 2024-yilning 1-choragida esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49,1 foizga oshgan. Kasallangan bolalarning barchasi virusli hepatit "A" ga qarshi emlanmagan.

Virus qaynatilmagan suv, yuvilmagan meva-sabzavotlar, shaxsiy gigienaga rioya qilmasslik va bemor bilan muloqot orqali yuqadi. Davolash faqat shifokor nazoratida olib borilishi shart.

Virusli hepatit "A" haqida

Aholi orasida "sariq kasalligi" deb ataladigan ushbu kasallik jigarni zararlaydigan yuqumli xastalik bo'lib, asosan kuz-qish mavsumida keng tarqaladi. Kasallik ko'pincha maishiy-muloqot yo'li orqali yuqadi.

Asosiy belgilari

- holsizlanish, isitma;
- ishtahaning yo'qolishi;
- qorin og'rig'i, ko'ngil aynishi, qayt qilish;
- ko'z, teri va siydik rangining sarg'ayishi.

Kasallikning oldini olish

- qo'lni sovuqlab yuvish;
- meva-sabzavotlarni yaxshilab yuvib iste'mol qilish;
- suvni qaynatib ichish;
- bolalarda barmoq tishlash, buyumlarni og'izga solish kabi odatlarga yo'l qo'ymaslik;
- xonadon va hojatxonani muntazam dezinfeksiya qilish.

Eng samarali himoya — emlash

Virusli hepatit "A" ga qarshi emlash orqali 45-60 kun ichida immunitet hosil bo'ladi va u 15 yilgacha saqlanadi. Kasallangandan keyin emlash kech bo'ladi, shuning uchun oldindan emlash muhim.

Hurmatli metallurglar!

Farzandlaringiz sog'ligiga befarq bo'lmang.

Xolida TO'YBEKOVA,
Bekobod shahar sanepid bo'limi
epidemiolog vrach yordamchisi.

Mamlakatimizda sanoat sohasini tubdan yangilash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati hududida 2026-yildan boshlab zamonaviy texnopark qurilishiga start berilgani, ayniqsa, bekobodliklar uchun muhim voqea bo'ldi.

Ushbu texnopark sanoat infrazuzilmasini yangi bosqichga olib chiqish, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng

ZAMONAVIY TEXNOPARK BARPO ETILADI

QARIYB IKKI MING NAFAR FUQARO DOIMIIY ISH O'RNI BILAN TA'MINLANADI

tatbiq etish hamda raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirishga xizmat qiladi. Loyihaning amalga oshirilishi nafaqat Bekobod, balki butun hudud iqtisodiyoti rivojiga ham kuchli turtki beradi.

U to'liq faoliyat boshlaganidan so'ng qariyb ikki ming nafar fuqaro doimiy ish o'rni bilan ta'minlanishi rejalashtirilmoqda. Bu esa aholi bandligini ta'minlash, ayniqsa, yosh mutaxassislar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning zamonaviy kasb, texnologiyalarni o'zlashtirishlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratadi.

"O'zmetkombinat" hududida amalga oshirilayotgan mazkur loyiha Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarning amal-

dagi ifodasi bo'lib, milliy sanoatni chuqur modernizatsiya qilishga qaratilgan qadam hisoblanadi.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, mazkur texnopark kelgusida ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini jalb etish, mamlakat sanoat salohiyatini yanada mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylanadi.

Rahmonberdi BERDIYEV.

O'zbekiston metallurgiya zavodining sobiq direktori Rixsivoy Yusupovni Bekobodda ko'pchilik taniydi. Toshkent shahrida tug'ilib o'sgan bo'lsa-da, uning butun mehnat faoliyati O'zbekiston metallurgiya korxonasi bilan bog'liq.

PO'LATDA TOBLANGAN UMR

R.Yusupov Magnitogorsk og'ir sanoat texnikumini imtiyozli diplom bilan tamomlab, Moskvadagi po'lat institutida tahsil olgan. 1957-yilda Bekobodga kelib, zavodning Marten sexida po'lat erituvchining yordamchisi sifatida mehnat faoliyatini boshlaydi. Qisqa vaqt ichida barcha texnologik kasblarni puxta o'zlashtirib, iqtidorli mutaxassis sifatida taniladi.

1962-yilda u uzluksiz po'lat quyish qurilmasiga usta bo'lib o'tadi. Qurilmaning barpo etilishida faol ishtirok etib, uning texnologiyasini birinchi bo'lib o'zlashtirgan mutaxassislardan biriga aylanadi.

Ishlab chiqarish bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug'ullanadi. Ayniqsa, zavod markaziy laboratoriyasiga rahbarlik qilgan yillarida qator yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etadi. Mehnat faoliyati davomida u 50 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflari, 6 ta ixtiro va 3 ta ilmiy maqolaga mualliflik qilgan.

1965-yilda zavod direktori I.Muhamedov Toshkentga yangi lavozimga o'tganidan so'ng, 34 yoshli Rixsivoy Yusupov zavod direktori etib tayinlanadi. Bir yil o'tib, ustoz qaytib kelgach, u o'z xohishi bilan direktorlikni unga topshirib, o'zi Marten sexiga boshliq bo'lishni afzal ko'radi. To'rt yil davomida sexga rahbarlik qilgan paytida ishlab chiqarish hajmi keskin oshib, yillik 290–310 ming tonna po'latga yetadi.

Keyinchalik u umumiy masalalar, so'ng kapital qurilish bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishlaydi. Zavodni kengaytirish ishlari avj olgan davrda, 35 gektar maydonda joylashgan korxona 500 gektargacha kengayib, ishchilar soni 4 baravarga oshib 10 ming nafarga yetkazilishi rejalashtiriladi. Ana shu ulkan qurilish ishlariga Rixsivoy Yusupov bevosita rahbarlik qiladi. Uning boshchiligidagi XIMICH korxonasi, EPES, 2-NPS, ularga xizmat ko'rsatuvchi

zamonaviy ishlab chiqarish sexlari hamda ko'plab madaniy-maishiy ob'ektlar barpo etildi.

1979-yil fevral oyidan u ikkinchi marta zavod direktori etib tayinlanadi. Bu davrda korxonada ish o'rinlari ko'payib, po'lat ishlab chiqarish hajmi 336,8

ming tonnadan 839,3 ming tonnaga, prokat mahsulotlari esa 366,7 ming tonnadan

755,2 ming tonnagacha oshadi.

Samarali mehnati uchun Rixsivoy Yusupov qator orden va medallar bilan taqdirlangan. 1981-yilda unga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni berilgan.

Nafaqat metallurgiya korxonasining, balki Bekobod shahri taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qo'shgan Rixsivoy Yusupov hayot bo'lganida yaqinda 95 yoshni qarshilar edi. Uning sermazmun va fidokorona hayot yo'li bugungi yoshlar uchun haqiqiy ibrat maktabidir.

Ismadiyor MAMATQULOV.



SO'RAGAN EDINGIZ...

ROZILIK OLISH SHARTMI?

Mehnat intizomini buzgani uchun bo'lim bo'shlig'i ishdan bo'shatildi. Kasaba uyushmasi roziligisiz bo'shatilgani uchun u sudga murojaat qilmoqchi. Uning sudda yutish imkoniyati bormi?

J. Mansurov.

Ish beruvchilar tomonidan xodimni ishdan bo'shatish jarayoni ko'p hollarda oddiy tartib sifatida qabul qilinadi. Ammo mehnat qonunchiligi ayrim toifadagi xodimlar uchun qo'shimcha huquqiy kafolatlarni belgilagan bo'lib, ulardan biri kasaba uyushmasi roziligini olish majburiyatidir.

Ish beruvchilar ko'pincha jamoa kelishuvida "ayrim rahbar xodimlar uchun kasaba uyushmasi roziligi talab qilinmaydi" degan normalarga tayanadi. Lekin bu mehnat qonunchiligi talablariga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun bunday bandlar yuridik kuchga ega hisoblanmaydi.

Sud amaliyotida esa qonun talabi buzilgan bo'lsa, ishdan bo'shatish haqiqiy emas deb topilib, xodim ishga tiklanishi, majburiy ishga chiqmagan kunlar uchun ish haqi undirib beradi. Ba'zi hollarda ma'naviy zarar ham undirilishi mumkin.

Xulosa shuki, kasaba uyushmasi roziligi formal talab emas, qonun bilan kafolatlangan huquqdir. Ichki hujjatlar esa qonundan ustun tura olmaydi.

Inomjon ESHONQULOV, huquqshunos.



(Davomi. Boshlannishi 1-sahifada).

Korxona mahsulotlariga ichki bozorda talab ortib borayotgani ham e'tiborga molik. Xususan, "Avtotraktorradiator" qo'shma korxonasi, "Elec-

TARAQQIYOT SARI ISHONCHLI QADAM

tric sales", "Standart elektrotexnika", "Turon sanoat mezon" mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, "Amistrong grant miks" xususiy korxonasi kabilar bilan uzluksiz hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

– Korxonada eksport masalasi bugungi kunda qay darajada dolzarb? – degan savolimizga esa korxona rahbariyati quyidagilarni ta'kidladi:

– Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning qariyb 70 foizi xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda. Bu xalqaro bozorda xaridorlarga raqobatbardosh mahsulot taklif qila olayotganimizdan dalolat beradi. Eksport geografiyasini kengaytirish borasida izchil ish olib boryapmiz, – deyishdi ular.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bunday nati-

jalarga erishishda jamoaning birdamligi, ishga mas'uliyat bilan yondashuvi va sifatga bo'lgan yuqori talab hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Korxonada eng asosiy mezonlardan biri – sifat. Har bir mahsulot iste'molchi talabiga javob berishi shart. Shu maqsadda nazorat tizimi doimiy takomillashtirib borilmoqda.

Kelgusida korxona ishlab chiqarish hajmlarini yanada oshirish, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish hamda tashqi bozorlarda o'z mavqei-ni mustahkamlashni rejalashtirmoqda. Bu esa Bekobod rangli metallar ishlab chiqarish korxonasining o'rni va ahamiyati yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

No'mon ABDURAHMONOV.

IBRAT OLGANGA IBRATDIR DUNYO

YAXSHILIKKA CHORLOVCHI QONUN

Inson bu hayotda yashar ekan, atrofida qilishga intilishi shart. Yaxshilik qilish insonning qalbini poklaydi, jamiyatni esa birlashtiradi.

Insonlarga emas, balki hayvonot va nabotot olamiga ham ziyon yetkazmaslik hayot qonuniyatlarining ajralmas qismidir. Masalan, chumчуqlarni qirib tashlash dalalarda hasharotlar ko'payishiga sabab bo'ladi, bu esa ekinlarning nobud bo'lishi va ocharchilik xavfini keltirib chiqaradi. Daraxtlarga yetkazilgan har qanday zarar esa ekologik muvozanatni buzib, og'ir oqibatlarga olib keladi.

Afsuski, ishxonalarda, mahalla-ko'ya yoki oila doirasida ham arzimagan sabablar tufayli insonlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Bunday ixtiloflar vaqt o'tib adovatga aylanib, odamlarni bir-biriga yomonlik qilishga undaydi. Aslida

esa yomonlik hech qachon yaxshilik bilan yakunlanmaydi.

Hayot qonuniyati shundan iboratki, kim boshqalarga yomonlik qilsa, u albatta bir kuni o'sha amalining oqibatini ko'radi. Bu qachon va qaerdan kelishini inson bilmasligi mumkin, ammo adolat baribir qaror topadi.

E'tiborlisi shundaki, tabiatning o'zi ham murosas va muvozanat asosida yashaydi. Olimlarning tadqiqotlarida ma'lum bo'lishicha, qalin o'rmonlarda o'sadigan daraxtlar shox-shabbalarini bir-biriga tegizib yubormaslik uchun o'zaro muayyan masofani saqlab o'sar ekan. Tabiatning bu nozik qonuni shunchaki tasodif emas. Daraxtlar shu yo'l bilan bir-birining o'sish yo'liga to'sqinlik qilmaydi, yorug'lik va havodan barobar foydalanadi.

Tabiatdagi bu nozik qonun inson uchun katta ibratdir. Ammo ayrim insonlar boshqalarning shaxsiy hududi, qadr-qimmatini va his-tuyg'ularini inobatga olmasdan, ularni poymol qilishni oddiy hol deb qabul qilayotgani achinarlidir.

Hayot va tabiat qonunlari insonni yaxshilikka, hurmat va murosasga chorlaydi. Kim yaxshilikni hayot qoidasiga aylantirsa, u nafaqat o'z taqdirini, balki atrofida hayotini ham obod qiladi. Aksincha bo'lishdan ehtiyot bo'ling!

Diyoira AXMEDOVA.

"METALLURG" FUTBOL KLUBI
FAOLIYATI QAYTA TIKLANDI

Mazkur klubning faoliyati 2024-yilda to'xtatilgan edi. Oradan ikki yil o'tib, "Metallurg" yana Pro Ligada ishtirok etadigan bo'ldi.

O'zbekiston futbolida munosib o'rin egallagan "Metallurg" jamoasi katta futbolga qaytdi. "Metallurg" rahbariyati bir qator tajribali futbolchilar bilan kelishuvga erishgan. Shuningdek, ayni paytda ishsiz yurgan murabbiylar bilan ham muzokaralar olib borildi. Hatto 2027-yil mavsumida "Metallurg" oldiga Superligaga chiqish vazifasi qo'yish ko'zda tutilgan.

"Metallurg" futbol akademiyasida klub faoliyati qayta tiklangani munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Unda O'FA birinchi vitse-prezidenti Ravshan Ermatov ham ishtirok etib, "Metallurg" oldingi mavqeini yana tiklab, milliy terma jamoaga iqtidorli futbolchilarni tayyorlab berishida omad tilayman" – deb samimiy tilak bildirdi.

Shuningdek, klub rahbariyatida muhim tayinlovlar amalga oshirildi: Ulug'bek Mirzayev bosh direktor, Ilhom Mo'minjonov esa bosh murabbiy lavozimiga tayinlandi.

Artur KULIYEV.

DONOLAR BISOTIDAN

Illat izlaganga illatdir dunyo,
G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo.
Kim neki izlasa, topgay begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.

Sadriddin Salim BUXORIY.

EHTIYOT
BO'LING!

Fikrlarga ehtiyot bo'ling, ular amallarning boshlanishi.

Lao Szining.

HARAKATDA
BO'LISH
KERAK!

Hayot – velosiped haydashga o'xshaydi. Muvozanatni saqlab qolish uchun hamisha harakatda bo'lishing kerak.

Albert Eynshteyn.

OXIRGI
IMKON

Agar xalq o'z tilini saqlab qolish uchun kurash boshladimi, bilingki, bu uning oxirgi imkoni: agar u ona tilini ham yo'qotsa, millat sifatida tugaydi.

Abulfayz Elchibey.

VAQT
QADRI

Mening orzu-maqсадlarim katta edi. Bugun emas, ertadan boshlayman derdim. Yillar o'tdi, erta ham keldi. Ko'zguga boqqanimda esa menga bir mo'ysafid qarab turar edi.

Muzaffar Shuhratov.

IS GAZI – YASHIRIN XAVF

QOIDALARGA AMAL QILAYLIK!

Qish mavsumida isitish moslamalaridan foydalanish ko'payishi bilan birga is gazidan zaharlanish holatlari ham tez-tez uchramoqda. Is gazi (uglerod oksidi) hidsiz, rangsiz va ko'zga ko'rinmas bo'lgani sababli inson salomatligi va hayoti uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, is gazi asosan gaz plitalari, pechlar, isitish qozonlari hamda nozoz ventilyatsiya tizimlari orqali xona ichiga tarqaladi. Uning eng katta xavfi – inson uni sezmasdan nafas olishi va qisqa vaqt ichida og'ir zaharlanish holati yuzaga kelishidir.

Is gazidan zaharlanishning asosiy belgilariga bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, bosh aylanishi, holsizlik, nafas qisilishi kiradi. Og'ir holatlarda esa inson hushini yo'qotishi yoki hatto hayotdan ko'z yumishi mumkin.

Hurmatli metallurglar!

Bunday ko'ngilsiz holatlarning oldini olish uchun quyidagi qoidalar-ga qat'iy amal qilish zarur:

– isitish uskunalari faqat mutaxassislar tomonidan o'rnatish va muntazam tekshiruvdan o'tkazish;

– xonalarda ventilyatsiya tizimining soz holatda bo'lishini ta'minlash;

– gaz jihozlarini nazoratsiz qoldirmaslik;

– is gazi aniqlagich (datchik) o'rnatish;

– uxlashdan oldin gaz moslamalarining o'chirilganini tekshirish.

Eslatib o'tish joizki, ehtiyot choralari-ga amal qilish orqali is gazidan zaharlanish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish mumkin. O'zingiz va yaqinlaringiz salomatligini asrash uchun befarq bo'lmang.

Bekzod YUSUPOV,
"O'zmetkombinat" AJ
ob'yektlarida FVB boshlig'i,
mayor.

Navro'z ROHATOV,
Bekobod shahar FVB
inspektori, serjant.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron variantda
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.